



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Special Issue | pp. 159-163 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### KORXONALARINING BARQAROR RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR



**Axmedov Islombek O'tkir O'g'li**

Xalqaro Nordik Universiteti tayanch doktoranti

E-mail: [islombek1993@gmail.com](mailto:islombek1993@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada hozirgi raqamlashtirish jarayonida korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash va ular faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan. Barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar: makrodarajada, mezodarajada va mikrodarajadalariga bo'lib tizimlashtirilib tahlil qilingan. Korxonalar faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar ham batafsil o'rganilgan.

**Kalit so'zlar.** Barqaror rivojlanish, makrodarajada, mezodarajada, mikrodaraja, ichki omillar, tashqi omillar.

**Аннотация.** В статье рассматриваются факторы, влияющие на устойчивое развитие предприятий и их деятельность в условиях современного процесса цифровизации. Факторы, влияющие на устойчивое развитие, систематизированы и проанализированы на макро-, мезо- и микроуровне. Также подробно изучены внутренние и внешние факторы, влияющие на деятельность предприятий.

**Ключевые слова.** Устойчивое развитие, макроуровень, мезоуровень, микроуровень, внутренние факторы, внешние факторы.

**Kirish.** Bugungi kunda jahon miqyocida iqtisodiyotning raqamli ko'rinishga o'tish sharoitida sanoat korxonalarining iqtisodiy, moliyaviy, ekologik va ijtimoiy barqarorligini rivojlantirish masalalariga etakchi yo'nalish sifatida qaralmoqda. Bunday yo'nalishda rivojlanishini hisobga olib "2019-yilda BMT bosh Assambleyasining 74-sessiyasida 2021-yil "Barqaror rivojlanish yo'lida xalqaro kreativ iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi. Indoneziya taqdim etilgan taklifning asosiy tashabbuskori bo'lib, global mamlakatlar guruhi tarkibiga kiruvchi Avstraliya, Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Mo'g'uliston, Filippin va Tailand kabi davlatlar ham o'z hissalarini qo'shishgan"<sup>1</sup>. Iqtisodiyotning raqamlashtirilishi, bir tomondan texnologik jihatdan barqaror rivojlanishni, ikkinchi tomondan esa sanoat korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi, bu tarmoqdagi olib borilayotgan faoliyat camaradorligini yanada oshirish zaruratini ko'rsatib bermoqda.

Dunyoda sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi ixtisoslashgan bozorlarda raqobatbardoshlikning o'sib borishi sababli tarmoqning faoliyat camaradorligidagi

<sup>1</sup> <https://unctad.org/topic/trade-analysis/creative-economy-programme/2021-year-of-the-creative-economy>

barqarorlikni oshirish bo'yicha ijtimoiy, moliyaviy, texnologik, dasturiy, iqtisodiy va boshqa yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlarni olib borishga alohida e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda bygyngi kynda sanoat korxonalarini sifat jihatdan yangi darajaga olib chiqish, ishlab chiqarishda zamonaviy usullardan foydalanish va investitsion faoliyatni yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "...mamlakatimiz 50 dan ortiq sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda barcha imkoniyatlar va nisbiy ustunliklarga ega. Ayniqsa, neft-gaz, kimyo, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika, farmatsevtika, qurilish materiallari, to'qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat hamda "yashil iqtisodiyot" bilan bog'liq sanoat tarmoqlari iqtisodiyotimiz "drayverlari"ga aylanishi uchun barcha etarli sharoitlar mavjud. Umuman olganda, 2021 yilda 23 milliard dollar qiymatidagi investitsiyalarni o'zlashtirish zarur. Natijada 226 ta yirik sanoat va infratuzilma ob'ektlari ishga tushiriladi"<sup>2</sup>. By o'z navbatida iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini e'tiborga olgan holda erishilayotgan samaradorlikni baholash uslubiyatini takomillashtirish, ishlab chiqarish jarayonini qayta ko'rib chiqish, iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda raqamlashtirish va jahon bozori talabiga mos mahsulotlarni etkazib berish sharoitlarini e'tiborga olgan holda barqaror rivojlantirishning me'yoriy chegaralarini zamonaviy tendensiyalarga asoslanib baholash ycylini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini chuqurlashtirish maqsadga muvofiqdir.

#### **Adabiyotlar tahlili.**

Korxonaning barqaror rivojlanishi xususidagi yondashuvlar hamda amaliy jihatlarini A.Smit, A.Marshall, Dj.Keyns, D.N.Medouz, D.L.Medouz, Y.Randers, V.V.Berens III, G.Deyli, R.Kostanza, F.B.Golli kabi xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Investitsiyalashning nazariyasi va amaliyoti, mamlakat iqtisodiyotini liberallashtirish va diversifikasion jarayonlarni rivojlantirishdagi ahamiyati hamda investitsiyalarning samaradorligini oshirish myammolari mahalliy iqtisodchi olimlardan M.A.Ikramov, B.T.Calimov, N.M.Maxmydov, M.T.Asqarova, M.A.Maxkamova, A.U.Burxanov, A.Ortikov, M.P.Narzikulov, E.X.Maxmudov, F.Karimov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.


#### **Tahlil va natijalar**

Hozirgi kunda Respublikamizda raqamli iqtisodiyot sharoitida vujudga kelayotgan zamonaviy muammolarga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish esa korxonalarining barqaror rivojlanishi va jahondagi etakchi o'rinlarni egallashini ta'minlaydi. Buning uchun mamlakatimizda ishlab chiqarish jarayonining asosiy ustunlari xomashyo, zamonaviy texnologiyalar, mehnat resurslaridan to'g'ri va samarali foydalanish talab etiladi. Buning natijasida mamlakatimizning imoport calmog'i pacayadi va eksport salohiyatining oshishiga sabab bo'ladi. Eksportdan olingan foyda hajmining ortishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, texnik-innovatsion, texnologik-investitsion rivojlanishi va aholi farovonligining o'sishiga olib keladi. SHu bilan bipga Respublikamizning xalqaro miqyosdagi darajasini ko'tapish va uning jahondagi onlayn

<sup>2</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисига Мурожаатномаси. 29 декабрь 2020 йил.

bozorlardagi calohiyatini oshiradi. Natijada barqaror rivojlanish hisobiga mamlakat iqtisodiyotini paqamlashtirish va shart-sharoitlarni yaxshilashga zamin yaratiladi.

Mamlakatning makroiqtisodiy rivojlanishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi, indikatorlar sonini oshirish orqali sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish maqsadlariga erishish mumkin bo'ladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarini barqaror rivojlanish mexanizmlari bilan bog'liq ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonlarida xorij tajribasidan keng ko'lamlil foydalanish va xalqaro standartlarga mos keladigan ko'rsatkichlarni shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.



1-rasm. Korxonaning barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar<sup>3</sup>

Ko'plab tahlillar natijasida barqaror rivojlanishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning guruhini quyidagicha shakllantirish mumkin:


- makrodarajadagi omillar - ushbu omillar korxonaning faoliyati nuqtai nazaridan ko'plab jihatlariga o'z ta'sirini o'tkaza oladi, lekin korxonaning o'zi esa tashqi muhitga nisbatan hech qanday teskari ta'sir o'tkaza olmaydi;

- mezodarajadagi omillar - yaqin atrofdagi ta'sir doirasida bo'ladi hamda korxonaga nisbatan salbiy ta'sir ko'rsatayotgan xavflarga qarshilik qiladi, xattoki paydo bo'lishi mumkin bo'lgan risklarning oldini olish va tashqi muhitga ta'sir o'tkaza oladigan xolatda yoki mavqeida bo'ladi;

- mikrodarajadagi omillar - korxonaning samarali rivojlanish imkoniyatlarini o'zida namoyon etadi, bu esa aniq samaradorlikni belgilovchi ko'rsatkichlarni o'zgartirish orqali ichki omillarga ta'sir qilish imkonini yaratadi va barqaror rivojlanish uchun zamin tayyorlaydi;

Korxonalarining faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar mavjud bo'lib, ular qo'yidagilardir.

<sup>3</sup> O'rganilgan adabiyotlar asosida muallif ishlantmasi



## 2-rasm. Sanoat korxonalarining faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar tarkibi<sup>4</sup>

Ushbu omillarni o'z vaqtida tahlil qilinishi natijasida korxonalarining barqaror rivojlanishiga zarar etkazishi mumkin bo'lgan turli xil risklarning oldini olish uchun zamin yaratiladi.

Tashqi omillarning taxlili korxonaga chetdan ta'sir qilishi mumkin bo'lgan risklarni oldini olishi mumkin. Ularga quyidagilar kiradi:

1. Iqtisodiy - mamlakatning rivojlanish bosqichi, investitsion iqlim, bozor kon'yukturasi, soliq siyosati, bozorning rivojlanishi, raqobatning darajasi;
2. Moliyaviy - pul-kredit siyosati, valyuta siyosati, moliyalashtirish stavkasi;
3. Ijtimoiy-siyosiy - hududiy, milliy, antimonopol, tashqi iqtisodiy siyosatning barqarorlik darajasi;
4. Demografik - aholining soni va tarkibi, turmush darajasi, talabning to'lovlilik qobiliyati;
5. Ilmiy-texnologik - ilm-fan va texnikani rivojlantirish darajasi, innovatsion jarayonning dinamikasi, xalqaro ilmiy texnik hamkorlik darajasi;
6. Ekologik - mehnatni rag'batlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish imkoniyati va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish darajasi;
7. Huquqiy - tarmoqda faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan korxonalarining huquqiy xavfsizlik darajasi, korxonalariga xizmat qiluvchi organlardagi xodimlarning huquqiy savodxonlik darajasi;

Korxonaning ichki omillarini tahlil qilish hisobiga mavjud imkoniyatlar uchun to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan risklarning oldini olish mumkin bo'ladi. Ularga quyidagilar kiradi:

1. Moliyaviy-iqtisodiy - xususiy va zayom kapitalining nisbati, asosiy vositalarning mavjudligi va miqdori, rentabellik va foydalilik darajasi, kreditor qarzdorlik,

<sup>4</sup> O'rganilgan adabiyotlar asosida muallif ishlantmasi

investitsiyalarni jalb qilish darajasi, moliyaviy mustaqillik darajasi, reinvestitsiya qilinayotgan foydaning ulushi, moliyaviy barqarorlik darajasi, xomashyo narxining dinamikasi, texnologik qayta qurollantirishga ajratilayotgan mablag'ning ulushi;

2. Tashkiliy - boshqaruv strategiyasining yo'nalishi, tarmoqdagi korxonaning hayotiylik siklining bosqichi, boshqaruvning tashkiliy strukturasi, imidj, nufuz darajasi;

3. Ishlab chiqarish - ishlab chiqarishning tarkibi va ko'lami, texnologiya va innovatsiyalarning darajasi, asosiy vositalarning eskirish darajasi, ishlab chiqarish hajmlari, mahsulotning sifati, hayotiylik sikli;

4. Mehnat resurslari - xodimlarning kasbiy darajasi, mehnatni rag'batlantirish va kauzal atributsiya darajasi, kadrlar qo'nimsizligi, malakani oshirish imkoniyati;

5. Bozor - tarmoqdagi raqobatning darajasi, bozordagi o'rni, tarmoqdagi korxonalarining narx siyosati, talabning darajasi;

6. Ijtimoiy-texnik - mehnat qilish sharoitlarining darajasi, xodimlarning texnik xavfsizlik bilan ta'minlanganligi, texnikalarning me'yoriy xujjatlardagi kabi faoliyat yuritishi;

7. Ilmiy - zamonaviy innovatsiyalarning joriy qilinganlik darajasi, yangiliklarni qabul qilish darajasi, xodimlarning yangi g'oyalarni amaliyotga joriy qilish darajasi.

#### **Xulosa va takliflar**

Shunday qilib, korxonalarining o'z vazifalari va barqaror rivojlanish maqsadlarini o'zgartirib turishi, xo'jalik faoliyatini yuritish texnologiyasiga innovatsion yo'nalishlarni kiritish, tarkibiy tuzilmalarga yangi mutaxassislarni jalb qilish va kadrlar zaxiralarini doimiy yangilab borishi zarur. Korxonasining o'zgaruvchan omillar ta'siriga doimiy ravishda moslashuvchanligini oshirib borish hisobiga barqaror rivojlanishni davom ettirishi mumkin bo'ladi.

Sanoat korxonasining ichki muhiti uning samarali va ijobiy iqtisodiy faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan salohiyatni ta'minlaydi. Bu raqamli iqtisodiyot sharoitida resurs oqimlarining mahsulot oqimlariga transformatsiya qilish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tizimning jami elementlaridagi o'zaro bog'liqligini oshirish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29 dekabr 2020 yil.
2. Кучерова, Е.Н. Структурирование проблем устойчивого развития машиностроительного предприятия: Учебное пособие / Е.Н.Кучерова, К.С.Бармашов, – Вязьма: РИЦ ВФ ГОУ МГИУ, 2016. - 90с..
3. <https://unctad.org/topic/trade-analysis/creative-economy-programme/2021-year-of-the-creative-economy>
4. <http://www.gov.uz>
5. <http://www.lex.uz>
6. <http://www.stat.uz>
7. <http://www.moderniz.org.ru/>

